

**Xalqaro Nordik universitetida “Milliy qadriyatlar sayli” va “Ma’rifat ulashib” loyihalari doirasida amalga oshirilgan ishlar xususida  
MA’LUMOTNOMA**

*Xalqaro Nordik universitetida 31-oktabrda “Milliy qadriyatlar sayli” bo‘lib o‘tdi.*

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 35 yilligi munosabati bilan Adiblar xiyobonida “Milliy qadriyatlar sayli” doirasida Xalqaro Nordik universiteti tomonidan Markaziy Osiyo davlatlaridan “Yosh liderlar” va Yevropa Ittifoqi vakillari hamda universitet talabalari, Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoira Sitorabonu Shomurodova ishtirokida “Ma’rifat ulashib” loyihasi amalga oshirildi.

Tadbirda o‘zbek xalqining buyuk ajdodi Alisher Navoiy hayoti va ijodi turli tillarda tanishtirildi.

Buyuk mutafakkir poyiga Markaziy Osiyo “Yosh liderlari” tomonidan gul qo‘yildi va barcha tillarda g‘azallar ijro etildi.

“Nordik taronasi” ansambli tomonidan o‘zbek va qardosh xalqlar milliy kuy-qushiqlari ijro etildi.

Ishtirokchilarga Adiblar xiyoboni va uning millat yoshlari vatanparvarligini yuksaltirishdagi ahamiyati, qator atoqli adiblar hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar berildi.

Tadbir davomida barcha ishtirokchilar va universitet talabalari Toshkent muzeyidagi “Milliy ekspozitsiya” va Toshkent shahri tarixi bilan yaqindan tanishtirildi.

Turkiy xalqlarning tinchlikparvar shoiri Alisher Navoiyning muhtasham haykali poyida esdalik rasmlariga tushildi.



